



ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING HINDISTONGA SAYOHATI

Egamova Sevinch Anvar qizi.¹

¹Farg'ona davlat universiteti, tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20302582>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-may 2026 yil
Ma'qullandi: 17-may 2026 yil
Nashr qilindi: 20-may 2026 yil

KEY WORDS

Abdurazzoq Samarqandiy,
Hindiston safari, tarixiy manba,
sayohatnoma, XV asr, diplomatik
missiya, madaniyat, siyosiy hayot,
kuzatuvlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada temuriylar davrida saroy xizmatida bo'lgan, muhim tarixiy jarayonlarga shaxsan guvoh bo'lib, ushbu voqealar asosida temuriylar davri bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Matlai as-Sa'dayn va Majma' ul-Bahrayn" asarini yaratgan shaxs, ya'ni Abdurazzoq Samarqandiy haqida so'z yuritiladi. Maqolada Abdurazzoq Samarqandiyning diplomatik faoliyati, xususan uning Hindistonga qilgan safari va uning bu yerda guvoh bo'lgan voqea hamda hodisalari tahlil qilinadi. Bunda o'zi guvoh bo'lgan voqealarni yozib qoldirgan asari, ya'ni "Matlai as-Sa'dayn va Majma' ul-Bahrayn" asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается личность Абдурраззак Самарканди — придворного деятеля эпохи Тимуридов, который был непосредственным свидетелем важных исторических процессов и на основе этих событий создал труд «Матлаи ас-Са'дайн ва Маджма' ул-Бахрайн», имеющий большое значение для изучения тимуридского периода. В статье анализируется дипломатическая деятельность Абдурраззак Самарканди, в частности его путешествие в Индию, а также события и явления, свидетелем которых он стал в этой стране. При этом основным источником является его произведение «Матлаи ас-Са'дайн ва Маджма' ул-Бахрайн», в котором описаны наблюдаемые им события.

Ключевые слова: Абдурраззак Самарканди, путешествие в Индию, исторический источник, путевые заметки, XV век, дипломатическая миссия, культура, политическая жизнь, наблюдения.

Abstract: This article examines the figure of Abdurazzoq Samarqandi, a court official of the Timurid era who personally witnessed significant historical developments and, based on these events, authored the work "Matlai as-Sa'dayn wa Majma' al-Bahrayn," which is of great importance for the study of the Timurid period. The article analyzes Abdurazzoq Samarqandi's diplomatic activities, particularly his journey to India, as well as the events and phenomena he observed there. The primary source for this study is his aforementioned work, in which he documented the events he personally witnessed.

Keywords: Abdurazzak Samarkandi, journey to India, historical source, travel account, 15th century, diplomatic mission, culture, political life, observations.

KIRISH

XV asrga kelib Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlar yanada jadallashadi. Xususan Amir Temur vafotidan keyin ro'y bergan taxt uchun kurashlar mamlakatda parokandalik holatini keltirib chiqargan edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan davlatning boshqa hududlar bilan aloqalari uzilmagan. Bunga Abdurazzoq Samarqandiyning faoliyatini misol qilib keltirish mumkin.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) juda yosh bo'lishiga qaramasdan o'z bilimini nayomon etib Shohrux mirzoni hayratga sola olgan va buning uchun saroyga qabul qilingan edi. U dastlab

mulozimlik lavozimiga tayinlangan. Lekin hali yosh bo'lganligi uchun dastlab u boshqa vazifalarni bajargan. Shular qatoriga elchilik aloqalari ham kiradi. Bunga sabab yuqorida nomi keltirilgan asarida u shahzoda va boshqa sulola vakillari o'rtasida xat almashinuvi haqida to'liq ma'lumot bergan. Shuningdek asarida ulardan ayrimlarini ham keltirib o'tgan. Bundan ko'rinadiki u bu ishlardan faol bo'lgan va shaxsan o'zi qatnashgan. Samarqandiy faqat bu bilan cheklanib qolmasdan o'zi safarlarni amalga oshirgan. Shulardan biri va uzoq davom etgani bu uning Hindistonga qilgan sayohatidir. Bu haqida Samarqandiy o'z asarida ma'lumot berib o'tgan.

Mazkur maqolada Abdurazzoq Samarqandiyning ushbu safari, uning maqsadi, yo'l davomida kuzatgan holatlari hamda Hindistonning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqidagi tasvirlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqolada asosan bitta manbadan, ya'ni "Matlai as-Sa'dayn va Majma' ul-Bahrayn" asaridan foydalanilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek bu asar muallifi Abdurazzoq Samarqandiyning o'zi bo'lib, bu asar ikki jildidan iboratdir. Asarning birinchi jildi asosan, Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'iriy" (Boysung'irga bag'ishlangan tarixlar sarasi) asari asosida yozilgan. Ikkinchi jild esa asosan muallifning o'zi guvoh bo'lgan voqea va hodisalari bayoni keltirilgan bo'lib, unda 1405-1470-yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Asar fors tilida yozilgan va hozirgi kunda uning dunyo kutubxonalarida ko'plab qo'lyozma nusxalari mavjuddir. Maqola uchun mazkur asarning Asomiddin O'rinboyev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan nashridan foydalanilgan.

Shuni alohida takidlab o'tish zarurki, Abdurazzoq Samarqandiyning yuqorida keltirilgan asaridan boshqa manbalarda u haqida to'liq ma'lumotlar uchramaydi. Mirxond, Xondamir, Alisher Navoiy kabilarning asarlarida Abdurazzoq Samarqandiy nomi tilga olingan bo'lsa ham, ular to'liq ma'lumot emas va safarlariga to'xtlmaydi. Shuning uchun asosiy manba va adabiyot bu yuqorida keltirilgan asarning tarjima qilingan qismi hisoblanadi.

Maqolani yozishda tarixiy va ilmiy usullardan foydalanildi. Qiyosiy metod yordamida Hindistonning o'sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy holati boshqa hududlar bilan solishtirildi. Shuningdek, tahlil va umumlashtirish usullari orqali soyahat davomida uchragan voqea va ma'lumotlar yoritib berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurazzoq Samarqandiy temuriylar saroyidagi muhim vazifalarni bajargan. Afsuski bu haqida biz o'zi yozib qoldirgan ma'lumotlardan boshqasini bilmaymiz. Yuqorida aytib o'tilgan asarda aynan shular haqida ma'lumotlar keltirilgan. Abdurazzoqning Hindistonga safari ham muhim vazifa hisoblangan. Bu haqida kitobning ikkinchi jildning ikkinchi qismida yozib qoldirgan. Asarda Hindiston safari bir qancha qismlarga bo'lingan. U uzoq yo'l yurgandan keyin Kolikut portiga yetib keladi. U bu yerni xavfsiz va obod hudud sifatida tavriyladi va Hormuzga qiyoslaydi. Kolikut hozir ham shu nom bilan ataluvchi port shahar bo'lib, Hindistonning janubiy hududidagi Kerala shtatida joylashgan. XIII-XV asrlarda yirik xalqaro savdo porti bo'lgan. Bu hududni "kofirlar qo'l ostida" deb ta'svirleydi va musulmonlar ham borligini aytadi. Uning yozishicha bu portning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yerga kelib to'xtagan kemalar umuman talon-taroj qilinmaydi. U bu yerda uch kun turgach hukmdori bilan ko'rishadi va hudud hukmdori Somuriy (somundra) deb atalgan ekan. Aynan shu joyda yana bir qiziqarli ma'lumotni berib o'tadi. Unga ko'ra somuriy vafot etgach taxtga uning o'g'li yoki aka-ukasi chiqa olmaydi, balki uning opasi yoki singlisidan bo'lgan jiyani chiqa oladi xolos.

U Kolikutdan chiqib yana bir qancha manzillarda bo'ladi. Shulardan eng oxirgisi sifatida Bijonagar (Vijayanagar) keltiriadi. Asarda ham "Hindiston safari dostonining oxiri" - deb keltiriladi. Shuni ham aytish lozimki, Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safarining ancha qismi aynan

shu Bijonagar shahrida kechadi. Asarda shunday yoziladi: “Men g’oyat kata va obodon bir shahar hamda saltanat va hukmdorligi nihoyat kamolga yetgan bir podshohni ko’rdim”. Ya’ni bunda muallif shaharning kata va obodligini ta’rif etmoqchiligi ma’lum. Bu hududda hukmdorlar “roy” deb atalgan bo’lib, muallif “Kalila va Dimna” kitobining hikoyalari aynan shu shahar donolarining hikmati natijasi ekanligi haqida ham o’z fikrini bayon etib o’tadi. Bu shaharning o’ziga xos jihati uning atrofi yettita istehkom bilan o’ralganligidir. Samarqandiy o’z asarida ular haqida, chegaralar haqida ham ma’lumot;ar berib o’tadi.

Kitobda Bijonagar bozorlarigan ta’rif berib o’tiladi. Shahar bozorlari nihoyatda keng va uzun bo’lib, bu yerda gular va qimmatbaho toshlar savdosi va muhimligi aytib o’tiladi kitobda. Muallif bu yer aholisining gulsiz sabr-toqat qilib turolmasligi haqida ham yozadi. Shuningdek marvarid, yoqut, olmos va zumradlarning ochiqdan-ochiq sotilishi ham aytiladi va muallif ularning har birini qiyoslab alohida ta’riflab o’tadi.

Bozorlardan keying o’rinda esa daftaxona va devon tilga olinadi va ta’rif beriladi. Asarda yozilishicha sulton ayvonining o’ng tarafida qirq ustunlik shaklda juda haybatli bir devonxona qurilgan. Uning oldida tutashgan joyda esa kotiblar o’tirishgan va u daftaxona deb atalgan. Hamma arzlar aynan shu devondan qbul qilingan va ularni qabul qiluvchi alohida shaxs bo’lgan. Faqatgina ushbu mansab egasi hukmdor bilan uchrashib muhim masalalarni yetkazgan. Bu muhim mansab bo’lib, bu mansabdagi shaxs podshoh dargohining o’ng qo’l tarafidagi turar joyda yashagan. Chap qo’l tarafda esa zarbxona joylashgan. Bundan ma’lumki bu hududa pul munosabatlari ham yaxshi rivojlangan. Bu haqida kitobda ham alohida ma’lumot berib o’tiladi. Xususan bu yerda tilladan tayyorlagan tangalarning o’zining uchta turi mavjud bo’lgan. Ulardan birinchisi “varaxa” deb ataladi. Uning yarmiga teng bo’lgan ikkinchi tanga esa “partob” deb atalib, uning o’ndab biriga to’g’ri keladigan uchinchi tanga “fanam” deb ataladi. Aholi oorasida eng ko’p tarqalgani fanam ekan.

Devonxona qarshida filxona, zarbxona qarshida esa shihnagoh (soqchixona) o’rnashgan. Aynan bu qismda fillarning muhimligi, fillarni ovlash bilan hukmdorlarning o’zlari shug’ullanganligi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar berib o’tiladi.

Asarda muallifning Hindiston safari bu bilan yakun topmaydi. Asarda Bijonagar hukmdoriga suiqasd, shahardagi kata bayramga guvoh bo’lganligi va Hindistondan qaytish sarguzashtlari haqida ham yozib qoldirgan. Lekin bularning barini bitta maqolaga sig’dirib bo’lmaydi.

Lekin yuqoridagi ma’lumotlarning o’zi ham Abdurazzoq Samarqandiyning brogan va ko’rgan joylarini naqadar sinchikovlik bilan o’rganiganidan yaqqol darak beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdurazzoq Samarqandiyning Hindistonga qilgan safari XV asr Sharq va Hindiston o’rtasidagi har tomonlama aloqalarni o’rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Aynan uning kuzatuvlari orqali Hindistondagi ijtimoiy hayot, savdo-sotiq munosabatlari, davlat boshqaruv tuzumi va xalq turmush sharoiti hamda an’analari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo’ldik. Ayniqsa, muallifning o’zi bu hududga borganligi va ko’zi bilan ko’rib, guvoh bo’lganligi bu ma’lumotlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Abdurazzoq Samarqandiy o’z sayohati davomida Hindistonning nafaqat siyosiy va iqtisodiy hayoti haqida, balki uning boy tabiati va turli xalqlar urf-odatlarini haqida ham ma’lumotlar berib o’tadi. Bu esa nafaqat tarixchilar, balki geografiya, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi. Shuningdek bu hududlarni boshqa joylar, asosan sharq shaharlari bilan qiyoslashi ham uning bu hududlarni naqadar sinchikovlik bilan o’rganiganligini ko’rsatadi.

Umuman olganda, uning sayohati Temuriylar davlatida tashqi diplomatik aloqalar va xalqaro munosabatlarning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu asar hozirgi kunda o'zidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va muhimligi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

References:

1. Samarqandiy A. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn / tarj. A. O'rinboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Abd al-Razzaq Samarqandi. (1943). Matla-us-Sadain wa Majma-ul-Bahrain [The Rise of the Two Auspicious Constellations and the Confluence of the Two Oceans]. Gilani Edition.
3. Matla' al-sa'dayn va Majma' al-bahrayn (Farsi qo'lyozmalari va nashrlari). Retrieved from <https://archive.org/details/MatlaESadainVaMajmaEBahrainJildESivum-KamaluddinAbdurRazzaqSamarqandiFarsi>
4. Author Unknown. (n.d.). The Chinese and Timurid sources on the relationships between China and Central Asia at the end of the XIV – first quarter of the XV centuries. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/334178933_The_Chinese_and_Timurid_sources_on_the_relationships_between_China_and_the_Central_Asia_at_the_end_of_the_XIV_-_the_first_quarter_of_the_XV_centuries
5. Ghiyath al-Din Naqqash. (n.d.). Account of the Timurid mission to Beijing. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Ghiyath_al-Din_Naqqash
6. Toshkent State University of Oriental Studies. (n.d.). Electronic archives and manuscripts. Retrieved from <https://tsuos.uz/>

